

Ashirboyev Samison

**Q'ZBEK  
DIALEKTOLOGIYASI**

ISBN 978-9943-7188-4-5



9 789943 718845

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI

O‘zbek shevashunosligi markazi

Ashirboyev Samixon

## O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
“Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)” ta‘lim yo‘nalishi  
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etgan

*Ushbu kitobni qabul qilishga  
Izoh berilgan*

*Nodirabegim*

*22. IX. 2021.*

“Nodirabegim” nashriyoti  
Toshkent – 2021

KBK: 81.2-67(50'zb)

A 93

UO'K: 811.512.133'28

ISBN 978-9943-7188-4-5

Ashirboyev Samixon

O'zbek dialektologiyasi [Matn] : darslik / S. Ashirboyev. - Tashkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.

Ushbu darslik bakalavriatning “Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)” ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va “O'zbek dialektologiyasi” fan dasturi asosida tayyorlandi hamda talabalarga o'zbek tilining qarluq, o'g'uz va qipchoq lahjalaridagi fonetik, grammatik va leksik xususiyatlar to'g'risida bilim va malaka berish ko'zda tutilgan. Darslikda ilmiy tadqiqot natijalari va hozirga qadar amalda bo'lgan darslik va qo'llanmalar an'alaridan foydalanilgan. Uning mundarijasidan dialektologiyaga oid umumiy-nazariy masalalar, amaliy mashg'ulotlar uchun shevalardan yozib olingan matnlar, test namunalar va o'quv amaliyoti mazmuni o'rin olgan, har bir mavzu so'ngida tayanch tushunchalarning izohi va uning rus va ingliz tilidagi tarjimalari berib borilgan. Darslikda dialektologiyaga oid xorijiy adabiyotlar, axborot manbalaridagi nazariy va amaliy bilimlarga ham e'tibor berilgan. Darslikdan magistrantlar va ilmiy xodimlar ham foydalanishlari mumkin.

#### Taqrizchilar:

**Abdiyev Murodqosim** – filologiya fanlari doktori, Samarqand davlat universiteti professori

**Enazarov Tolib** – filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi Tashkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

© S. Ashirboyev.

© “Nodirabegim” nashriyoti, 2021.

#### Kirish

“O'zbek dialektologiyasi” o'zbek millati tilining ko'rinishlari, ya'ni uning shevalari to'g'risidagi fandir. Har bir xalq o'z mahalliy shevalarida muloqot yuritadi, binobarin, xalq o'z shevasi bilan birga yashaydi va sheva ham xalqning butun borlig'ini, moddiy va ma'naviy dunyosini, his-tuyg'ularini ifoda qiladi hamda bu jarayonda u to'xtovsiz rivojlanish sari faoliyatda bo'ladi va boyib boradi. Uning boyligi fonetik, grammatik va leksik sathlarda namoyon bo'ladi. “O'zbek dialektologiyasi” fani shevalarimizning barcha qirralari bo'yicha talabalarda bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qiladi va shu orqali til bilimlari to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

“O'zbek dialektologiyasi” sotsiolingvistika fanlaridan biri bo'lib, o'zbek mahalliy shevalarini o'rganadi. **Dialektologiya** so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to'g'risidagi bilim degan ma'noni bildiradi. O'zbek dialektologiyasi o'zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegaralarini hamda shevalarning faoliyatda bo'lishi bilan bog'liq masalalarni o'rganadi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u **milliy-ma'naviy qadriyat** hisoblanadi. Aslida ona tili deganda, shevalarni tushunish haqiqatga yaqindir, shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur.

Shevalar to'g'risidagi fanni o'rganish talabalarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini tug'diradi. Bu borada prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning: “... o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari (ta'kid bizniki – A.S.), tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish...”<sup>1</sup> haqidagi fikri e'tiborlidir. To'g'ri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda o'zbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu o'z shevasini unutishi kerak degan ma'noni anglatmaydi. Aksincha, har bir shaxs o'z fikrini erkin ifodalashda ixtiyor-beixtiyor o'z shevasi yoki o'zlashtirgan shevasiga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Buning

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. “Ўзбекистон овози”, 2019 йил 22 октябрь.